| Xorijiy andragogik yondashuvlarni kasbiy ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari .....                                                              | 434 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Kamalovich</b>                                                                                                                                       |     |
| The Power of Intercultural Competence in Global Communication.....                                                                                                       | 439 |
| <b>Serdaliev Baxitli Xaydarovna</b>                                                                                                                                      |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasi .....                                                                 | 443 |
| <b>Matrizayeva To'maris Jumamirat qizi</b>                                                                                                                               |     |
| Raqamli ta'lim transformatsiyalashu-vining pedagogik mazmuni va zamonaviy tendensiyalari.....                                                                            | 449 |
| <b>Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi</b>                                                                                                                               |     |
| Pedagogik ta'lim tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni.....                                                                             | 457 |
| <b>Boymirzayeva Shanoza Olimjon qizi</b>                                                                                                                                 |     |
| The Effectiveness of a Synthetic Phonics Programme in Teaching Word Reading, Spelling and Reading Comprehension: a Critical Review and EFL Pedagogical Implications..... | 465 |
| <b>Nishonova Zuxra Voxidjon qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari: tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar.....            | 471 |
| <b>Baydjanov Bekzod Xaitboyevich</b>                                                                                                                                     |     |
| Biologiya ta'limida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashni pedagogik kvalimetriya va zamonaviy psixometrik yondashuvlar asosida takomillashtirish.....   | 476 |
| <b>Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li</b>                                                                                                                               |     |
| Oiladagi nizolarni hal etishda mediatorlik faoliyatining ahamiyati.....                                                                                                  | 483 |
| <b>Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna</b>                                                                                                                                 |     |
| Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari .....                                                                                  | 487 |
| <b>Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich</b>                                                                                                                                     |     |
| Kompyuter tarmoqlari mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari .....                                                 | 493 |
| <b>Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi</b>                                                                                                                                   |     |
| Bo'lajak filologlarni tayyorlashda art-menejment asosida pedagogik boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish texnologiyasi .....                                      | 499 |
| <b>Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovna</b>                                                                                                                               |     |
| Kasbiy sifatlarni rivojlantirishda qadriyat yo'naltirilganlik va motivatsion soha o'zaro bog'liqligi.....                                                                | 503 |
| <b>Qo'shmuratov Bekzod Abduraimovich</b>                                                                                                                                 |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi .....                                                 | 509 |
| <b>Rustamova Manzura Mirkamalovna</b>                                                                                                                                    |     |
| "Kelajak soatlari" darslarida yuqori sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi tarbiyalash (self-education) kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....                      | 517 |
| <b>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</b>                                                                                                                                 |     |
| Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.....                    | 523 |
| <b>Teshaboyev Ilxomjon Inomjon o'g'li</b>                                                                                                                                |     |



# XALQ PEDAGOGIKASIGA ASOSLANGAN KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING METODOLOGIK ASOSLARI

UDK: 37.013.42:39

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0003-2661-4310

**Annotatsiya:** Maqolada xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari nazariy-konseptual tahlil qilindi. Maqsad etnomadaniy resurslarni kompetent harakatga aylantirish mantiqini aniqlashdan iborat. Tushunchaviy, qiyosiy, tizimli va modellashtirish metodlari qo'llanildi. Natijada yondashuvning mualliflik ta'rifi, metodologik darajalari, resurslarni tanlash mezonlari hamda olti bosqichli transformatsiya sikli ishlab chiqildi. Xulosa sifatida xalq pedagogikasi mazmun emas, autentik faoliyat, refleksiya va transferni ta'minlovchi metodologik resurs bo'lgandagina kompetensiyaviy natija hosil qilishi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, kompetensiyaviy yondashuv, metodologiya, etnojtimoiy resurs, qadriyat, autentik vazifa, refleksiya, transfer, kompetent harakat.

**Abstract:** The article offers a theoretical and conceptual analysis of the methodological foundations of a competency-based approach grounded in folk pedagogy. It aims to explain how ethnocultural resources are transformed into competent action. Conceptual, comparative, systemic and modelling methods were applied. The study proposes an authorial definition, methodological levels, resource-selection criteria and a six-stage transformation cycle. It concludes that folk pedagogy generates competency outcomes only when treated not as information to reproduce, but as a resource for authentic activity, reflection and transfer to new situations.

**Key words:** folk pedagogy, competency-based approach, methodology, ethno-social resource, value, authentic task, reflection, transfer, competent action.

**Аннотация:** В статье теоретико-концептуально проанализированы методологические основы компетентного подхода, опирающегося на народную педагогику. Цель заключалась в выявлении логики преобразования этнокультурных ресурсов в компетентное действие. Применены понятийный, сравнительный, системный методы и моделирование. Разработаны авторское определение подхода, его методологические уровни, критерии отбора ресурсов и шестиступенчатый цикл трансформации. Обосновано, что народная педагогика обеспечивает компетентностный результат не как совокупность сведений, а как ресурс аутентичной деятельности, рефлексии и переноса опыта в новую ситуацию.

**Ключевые слова:** народная педагогика, компетентностный подход, методология, этносоциальный ресурс, ценность, аутентичное задание, рефлексия, перенос, компетентное действие.

## KIRISH

Zamonaviy oliy ta'limda natijani o'zlashtirilgan axborot hajmi bilan cheklab baholash yetarli emas. Talabning bilimni yangi vaziyatga ko'chira olishi, hamkorlik qilishi, dalillangan qaror qabul qilishi, o'z harakatining ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini baholashi ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichiga aylanmoqda. OECD Learning Compass 2030 kompetensiyani bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarning vaziyatga mos safarbar etilishi, talabning agentligi esa maqsad belgilash, mas'uliyatli harakat va refleksiya bilan bog'laydi [8: 4-5]. Rychen va Salganik tahriridagi DeSeCo konsepsiyasi ham kompetensiyani murakkab talablarni shaxsiy va ijtimoiy resurslardan foydalanib qondirish qobiliyati sifatida talqin qiladi [11: 41-62]. Bu qarashlar kompetensiyaviy yondashuvni fan mazmuniga qo'shimcha element emas, maqsad, faoliyat va baholashni qayta tashkil etuvchi metodologik paradigma sifatida ko'rishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida nazariy bilim berishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimga bosqichma-bosqich o'tish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish vazifalari belgilangan [9]. Uzlaksiz ma'naviy



tarbiya konsepsiyasi esa yoshlarning fazilatlarini, ijtimoiy mas'uliyati va faol fuqarolik pozitsiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish zaruratini ta'kidlaydi <sup>[10]</sup>. Mazkur ustuvorliklar kompetensiyaviy natijalarni milliy-madaniy tajriba bilan bog'laydigan ilmiy asoslangan yondashuvga ehtiyojni kuchaytiradi.

Xalq pedagogikasi avlodlar tajribasida shakllangan tarbiyaviy maqsadlar, qadriyatlar, me'yorlar, usullar, muloqot shakllari va ijtimoiy amaliyotlar tizimidir. Maqol va matallar, ertak va dostonlar, xalq o'yinlari, hashar, ustoz-shogirdlik, oilaviy maslahat, mahalla hamkorligi unda faqat mazmuniy material emas; ular rol taqsimlash, o'zaro yordam, javobgarlik, nizoni hal qilish va qadriyatli tanlov kabi harakat ssenariylarini saqlaydi. Volkov etnopedagogikani xalqning tarbiya tajribasi va uning pedagogik imkoniyatlarini o'rganuvchi bilim sohasi sifatida tizimlashtiradi <sup>[16; 3-20]</sup>.

Muallifning avvalgi tadqiqotida xalq og'zaki ijodining ijtimoiy faollikni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan <sup>[6; 54-57]</sup>. Biroq resursning mavjudligi uning kompetensiyaga avtomatik aylanishini anglatmaydi. Amaliyotdagi asosiy ziddiyat shundan iboratki, bir tomondan, ta'limdan real vaziyatda namoyon bo'ladigan kompleks kompetensiyalar talab qilinadi; ikkinchi tomondan, xalq pedagogikasi ko'pincha mavzuni bezovchi misol, bayram atributi yoki eslab qolish uchun berilgan nasihat darajasida qo'llanadi. Natijada talaba maqol ma'nosini aytib bera oladi, ammo ziddiyatli ijtimoiy vaziyatda undagi qadriyatga tayangan holda qaror qabul qilmasligi mumkin. Demak, ilmiy muammo etnomadaniy mazmunni ko'paytirishda emas, uni kompetent harakatga transformatsiya qiladigan metodologik birlik va pedagogik mantiqni aniqlashdadir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaviy ta'lim bo'yicha tadqiqotlarda ikki muhim yo'nalish ajraladi. Birinchi yo'nalish natijani integrativ qobiliyat sifatida talqin qiladi: kompetensiya bilim, ko'nikma va munosabatlarni ajratilgan holda egallash emas, ularni muayyan vazifa uchun safarbar etishdir. Mulder tahriridagi fundamental to'plamda kompetensiyaga asoslangan kasbiy ta'lim ish va ta'lim olamlari o'rtasidagi uzilishni kamaytiruvchi, natijalarni professional faoliyat bilan bog'lovchi tizim sifatida ko'rsatiladi <sup>[7; 1-43]</sup>. Ikkinchi yo'nalish ta'lim dizaynining uyg'unligini talab qiladi. Biggsning konstruktiv muvofiqlashtirish konsepsiyasiga ko'ra, kutiladigan natija, o'quv faoliyati va baholash topshirig'i bir xil kognitiv-faoliyat talabiga xizmat qilishi kerak <sup>[1; 347-364]</sup>. Shuning uchun "hamkorlik kompetensiyasi" ma'ruza tinglash bilan emas, real hamkorlikni talab etuvchi vazifa va uning jarayonini baholash orqali rivojlanadi.

Kompetensiyaning ijtimoiy va qadriyatli tabiatini Yevropa Kengashining demokratik madaniyat uchun kompetensiyalar modeli yanada aniqlashtiradi. Unda yigirmata kompetensiya qadriyatlar, munosabatlar, ko'nikmalar hamda bilim va tanqidiy tushunish guruhlariga ajratilgan <sup>[2; 38-51]</sup>. Ushbu tuzilma xalq pedagogikasidagi qadriyat va ijtimoiy me'yorlarni kompetensiyaning motivatsion-aksiologik qismi bilan, muloqot va hamkorlik amaliyotlarini esa ko'nikma va xulqiy qism bilan bog'lash imkonini beradi. Shu bilan birga, merosdagi har bir me'yor zamonaviy inson huquqlari, tenglik va madaniy xilma-xillik tamoyillari nuqtayi nazaridan tanqidiy tekshirilishi lozim. Dewey tajribani ta'limning markaziy manbai sifatida ko'rgan holda, har qanday tajriba avtomatik ravishda tarbiyaviy emasligini, uning keyingi tajribaga qanday yo'nalish berishi muhimligini ta'kidlaydi <sup>[3; 25-50]</sup>.

Kolb tajribaviy o'rganishni konkret tajriba, refleksiv kuzatish, mavhum konseptuallashtirish va faol sinashning uzluksiz sikli sifatida izohlaydi <sup>[4; 38-43]</sup>. Mazkur g'oyalar xalq pedagogikasi vositalarini faqat o'tmishga oid ma'lumot emas, talabaning o'zi bajaradigan, tahlil qiladigan va yangi vaziyatda sinab ko'radigan faoliyat ssenariysi sifatida loyihalashga asos bo'ladi.

Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida oliy psixik funksiyalar dastlab ijtimoiy munosabatda, keyin shaxsning ichki faoliyatida shakllanadi <sup>[15; 84-91]</sup>.

Lave va Wenger o'rganishni amaliyot hamjamiyatida ishtirokning kengayishi bilan izohlaydi <sup>[5; 29-37]</sup>. Ustoz-shogirdlik, jamoaviy mehnat, mahalla tashabbusi va avlodlararo suhbatning ta'limiy kuchi ham aynan ishtirok, kuzatish, hamkorlik va mas'uliyatni bosqichma-bosqich egallashda namoyon bo'ladi. Bu nazariyalar xalq pedagogikasining etnoijtimoiy resurslari kompetensiyaviy ta'limga mos ekanini ko'rsatadi, ammo ularni zamonaviy didaktik vazifaga qayta loyihalash zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

UNESCOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyasi ta'lim, xabardorlik va salohiyatni oshirishni merosni asrash vositasi sifatida belgilaydi, hamjamiyatlarning faol ishtirokini alohida talab qiladi <sup>[13; 14-15-moddalar]</sup>.

UNESCOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun yaratilgan resurslar to'plami tirik merosni fan mazmuni, dars va darsdan tashqari faoliyat bilan bog'lashning bosqichma-bosqich yo'llarini ko'rsatadi <sup>[12; 146-171]</sup>.

2024-yilda qabul qilingan Madaniyat va san'at ta'limi doirasi esa mahalliy va tub madaniyatlar, meros, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo muloqotning ta'limdagi o'rnini mustahkamlaydi <sup>[14]</sup>.



Bu hujjatlar “meros haqida o'rganish” bilan “meros orqali va meros bilan o'rganish” o'rtasidagi farqni metodologik jihatdan muhim qiladi. Manbalar korpusiga kompetensiyaviy ta'limni izohlovchi fundamental ishlar, madaniy-tarixiy va tajribaviy o'rganish nazariyalari, xalq pedagogikasiga oid manbalar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy ramkalari hamda O'zbekistonning ta'limga oid normativ hujjatlari kiritildi.

Tanlash mezonlari:

- manbaning birlamchi yoki rasmiy bo'lishi;
- kompetensiya, madaniyat va faoliyat o'rtasidagi munosabatni izohlashi;
- oliy ta'limda qo'llash imkonini berishi;
- bibliografik rekvizitlarining tekshirilishi.
- Mazkur ish sistematik sharh sifatida da'vo qilmaydi;
- u muammoni nazariy modellashtirish uchun maqsadli tanlangan manbalar tahlilidir.

Tushunchaviy tahlil “kompetensiya”, “kompetentlik”, “xalq pedagogikasi”, “etnoijtimoiy resurs” va “kompetent harakat” kategoriyalarining semantik chegaralarini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil xalqaro kompetensiya ramkalari va xalq pedagogikasining funksional mushtarakliklarini ochdi. Tizimli-strukturaviy tahlil maqsad, mazmun, faoliyat, refleksiya, transfer va baholash o'rtasidagi aloqalarni aniqladi. Germenevtik talqin urf-odat va folklor mazmunini tarixiy kontekst hamda zamonaviy axloqiy-huquqiy mezonlar bilan bog'ladi. Modellashtirish orqali metodologik darajalar, tanlash mezonlari va transformatsiya sikli ishlab chiqildi. Tahlil birligi sifatida xalq pedagogikasi vositasining nomi yoki janri emas, u yaratadigan ijtimoiy faoliyat va munosabat turi qabul qilindi. Masalan, hashar “milliy an'ana” degan statik birlik emas, jamoaviy maqsadni belgilash, rol taqsimlash, o'zaro yordam, javobgarlik, umumiy natijani baholash va jamoa manfaatini shaxsiy manfaat bilan muvofiqlashtirish ssenariysi sifatida ko'rildi. Shu tariqa resursning pedagogik qiymati uning tarixiy mashhurligi bilan emas, talabning qanday kompetent harakatini yuzaga keltirishi bilan baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil asosida xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv quyidagicha ta'riflandi: bu - xalqning etnomadaniy qadriyatlarini va ijtimoiy tajribasini autentik muammo, hamkorlikdagi faoliyat, refleksiya va transferga yo'naltirilgan baholash orqali talabning bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni yangi vaziyatda mustaqil hamda mas'uliyatli safarbar etish qobiliyatiga aylantiruvchi metodologik tizim.

Ta'rifdagi “asoslangan” atamasi xalq pedagogikasining illustrativ emas, tizim hosil qiluvchi resurs ekanini; “kompetensiyaviy” natijaning faoliyatda ko'rinishini; “yondashuv” esa maqsaddan baholashgacha barcha komponentlarning yagona mantiqqa bo'ysunishini bildiradi. Ikki paradigma o'rtasidagi integratsiya birligi sifatida “madaniy kontekstda kompetent harakat” tushunchasi taklif etildi. U talabning muayyan ijtimoiy vaziyatni anglash, tegishli etnomadaniy va ilmiy bilimlarni safarbar etish, qadriyatlar asosida variantlarni baholash, boshqalar bilan kelishish, mas'uliyatli qaror qabul qilish, natijani tahlil qilish va o'rgangan prinsiplarni yangi vaziyatga ko'chirish faoliyatidir. Demak, integratsiya “xalq pedagogikasi mazmuni + kompetensiyalar ro'yxati” ko'rinishidagi mexanik qo'shish emas; u mazmunning harakat va baholash mantiqiga aylanishidir.

Yondashuvning metodologik asoslari to'rtta darajada tizimlashtirildi. Darajalar ierarxik bo'lsa-da, amaliy loyihalashda ular bir vaqtda ishlaydi: falsafiy daraja inson va qadriyat haqidagi pozitsiyani, umumilmiy daraja tizim va faoliyat mantiqini, xususiy-ilmiy daraja pedagogik qonuniyatlarni, texnologik daraja esa dars va baholashning operatsional yechimlarini belgilaydi.

**1-jadval: Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik matritsasi (muallif ishlanmasi)**

| Daraja               | Asosiy yondashuvlar                                                    | Metodologik funksiyasi                                                                                  | Loyihalash natijasi                                   |
|----------------------|------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| <b>Falsafiy</b>      | Gumanistik, aksiologik, antropologik                                   | Talabani madaniy tajribani anglaydigan, tanlov qiladigan va javob beradigan subyekt sifatida belgilaydi | Qadriyat va shaxs agentligiga tayangan maqsad         |
| <b>Umumilmiy</b>     | Tizimli, faoliyatli, madaniy-tarixiy, kontekstual                      | Mazmun–faoliyat–refleksiya–transfer–baholash aloqalarini ochadi                                         | Yaxlit pedagogik jarayon va sababiy bog'lanish        |
| <b>Xususiy-ilmiy</b> | Kompetensiyaviy, etnopedagogik, dialogik, shaxsga yo'naltirilgan       | Etnoijtimoiy resursni kuzatiladigan kompetent harakat bilan bog'laydi                                   | Komponentlar, prinsiplar va indikatorlar              |
| <b>Texnologik</b>    | Konstruktiv muvofiqlashtirish, tajribaviy o'rganish, autentik baholash | Kutiladigan natija, vazifa, hamkorlik va baholash dalillarini moslashtiradi                             | Mashg'ulot ssenariysi, rubrika va portfolio dalillari |



Falsafiy-gumanistik asos talabaniy tayyor ijtimoiy me'yorlarni passiv qabul qiluvchi obyekt emasligini e'tirof etadi. U merosni tushunadi, uni zamonaviy vaziyatda qayta talqin qiladi, tanlov qiladi va tanlov oqibati uchun javob beradi. Aksiologik asos ezigulik, adolat, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehnatsevarlik va hamjihatlikni tayyor shior sifatida emas, muammoli vaziyatda qarorni baholash mezoni sifatida kiritadi.


Antropologik asos esa insonning kognitiv, hissiy, ijtimoiy va madaniy yaxlitligini hisobga oladi; shu sabab kompetentlikka bilim bilan birga empatiya, o'zini boshqarish, identiklik va amaliy odatlar ham kiradi. Gnoseologik va tanqidiy-vorislik asosi xalq bilimini na mutlaq haqiqat, na eskirgan qoldiq deb qabul qiladi. Maqol, urf-odat yoki oilaviy me'yor qaysi tarixiy sharoitda shakllangani, qanday ijtimoiy vazifani bajargani, bugungi huquqiy va axloqiy me'yorlar bilan qanchalik mosligi tahlil qilinadi. Shu yo'l bilan talaba "an'ana shunday" degan reproduktiv xulosadan "ushbu vaziyatda qaysi qadriyat saqlanishi, qaysi shakl yangilanishi kerak?" degan tanqidiy savolga o'tadi.

Tizimli-faoliyatli va kontekstual asos kompetensiyani tarkib topishi va tekshirilishini real yoki realga yaqin faoliyat bilan bog'laydi. Bilimning mavjudligi harakatga kafolat bermaydi; talaba manfaatlar to'qnashuvi, noaniqlik, vaqt cheklovi va boshqalarning pozitsiyasi mavjud vaziyatda tegishli resurslarni tanlashi kerak. Shu bois ertak tahlili faqat syujetni qayta hikoyalash bilan tugamaydi: undagi axloqiy dilemma zamonaviy talaba hayotiga oid keysga ko'chiriladi, guruhda muhokama qilinadi, qaror dalillanadi va uning ehtimoliy oqibatlari baholanadi.

Dialogik va madaniyatlararo asos merosni biryozlama singdirishdan saqlaydi. Turli hudud, avlod, jins va ijtimoiy guruh tajribalari teng hurmat bilan muhokama qilinadi; mahalliy qadriyat umuminsoniy qadriyatlar bilan qiyoslanadi. Natijada milliy identiklik yopiq etnosentrizm emas, o'z ildizini anglagan holda boshqa madaniyat va nuqtayi nazarlar bilan muloqot qila olish qobiliyatiga aylanadi. Yevropa Kengashi modelidagi inson qadr-qimmati, xilma-xillikka ochiqlik, empatiya, hamkorlik va tanqidiy tushunish komponentlari bunday talqinning normativ chegarasini belgilaydi [2: 38-51].

#### **Etnoijtimoiy resursni kompetent harakatga transformatsiya qilish sikli**

Xalq pedagogikasi resursining kompetensiyaga aylanishi olti bog'langan bosqich orqali tushuntirildi. Siklning metodologik invarianti - kutiladigan natija, autentik vazifa, hamkorlik, refleksiya, transfer va baholash birligi. Janr, hududiy an'ana, raqamli platforma, hamjamiyat vakili yoki loyiha mavzusi esa o'zgaruvchan elementlardir. Shunday qilib, model turli fan va hududlarga moslashadi, ammo kompetensiyaviy mantiqni yo'qotmaydi.



**1-chizma: Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy transformatsiya sikli**

Sikl chiziqli algoritm emas. Refleksiya hamkorlikdagi faoliyat davomida ham sodir bo'ladi, qadriyatli muammo transfer bosqichida yangidan yuzaga keladi. Biroq barcha funksiyalar mavjud bo'lishi shart:

- faqat mazmunni bayon qilish kompetensiyani hosil qilmaydi;
- faoliyat refleksiyasiz odat sababini anglatmaydi;
- transfer topshirig'isiz natijaning yangi sharoitda mustaqil qo'llanishi isbotlanmaydi;
- faqat test bilan baholash esa hamkorlik va mas'uliyat jarayonini ko'rsatmaydi.



2-jadval: Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy transformatsiya sikli (muallif ishlanmasi)

| Bosqich                  | Pedagogik amal                                                        | Talaba faoliyati                                     | Natija dalili                            |
|--------------------------|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| 1. Natijani belgilash    | Kompetent harakat va kontekstni aniq ifodalash                        | Vazifa talabi va muvaffaqiyat mezonini anglash       | Kutiladigan natija/deskriptor            |
| 2. Resursni ochish       | Maqol, rivoyat, an'ana yoki amaliyotni muammo sifatida taqdim etish   | Manba, ma'no va tarixiy kontekstni tahlil qilish     | Tahliliy yozuv yoki savollar             |
| 3. Qadriyatli muammo     | Manfaat va me'yorlar to'qnashgan autentik vaziyat yaratish            | Variantlarni qadriyat va oqibatlar asosida baholash  | Dalillangan pozitsiya                    |
| 4. Hamkorlikdagi harakat | Keys, loyiha, rol o'yini, dala yoki jamoa topshirig'ini tashkil etish | Rol taqsimlash, muzokara, qaror va birgalikdagi amal | Jarayon kuzatuv va mahsulot              |
| 5. Refleksiya            | Jarayon, hissiyot, xato, kuchli tomon va oqibatni tahlil qildirish    | O'z hissasi va strategiyasini baholash               | Refleksiv kundalik/intervyu              |
| 6. Transfer va baholash  | Yangi, murakkabroq vaziyat va ko'pmanbali baholashni berish           | O'rganilgan prinsipni mustaqil moslashtirish         | Situativ topshiriq, portfolio va rubrika |

Masalan, "hashar" resursi bilan ishlashda maqsad an'ana tarixini yodlatish emas, jamoaviy muammoni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish bo'lishi mumkin. Talabalar universitet hududidagi real ehtiyojni aniqlaydi, manfaatdor tomonlar bilan kelishadi, rollarni taqsimlaydi, resurs va vaqtni rejalashtiradi, tashabbusni amalga oshiradi, jarayonning adolatligi va inklyuzivligini tahlil qiladi. Keyin ayni prinsipni boshqa kontekst – masalan, raqamli ko'ngillilik yoki mahalla loyihasiga ko'chiradi. Shu tariqa an'ananing tashqi shakli emas, uning hamkorlik va mas'uliyat yadrosi kompetent harakatga aylanadi.

#### Kompetentlik komponentlari va baholash mezonlari

Yondashuv doirasida kompetentlikning besh o'zaro bog'langan komponenti ajratildi: aksiologik-motivatsion, kognitiv-etnomadaniy, kommunikativ-hamkorlik, faoliyatli-xulqiy va refleksiv-transfer. Ular mustaqil ballar yig'indisi emas, real vazifadagi yaxlit faoliyatning analitik qirralaridir. Baholash natijani faqat "biladi/bilmaydi" ko'rinishida emas, talabani nima uchun shunday tanlov qilgani, boshqalar bilan qanday ishlagani, vaziyat o'zgarganda strategiyasini qay darajada moslashtirgani bilan birga ko'rsatishi kerak.

3-jadval: Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetentlikni baholash mezonlari (muallif ishlanmasi)

| Komponent              | Asosiy mezon                                  | Kuzatiladigan indikator                                                               | Baholash dalili                        |
|------------------------|-----------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
| Aksiologik-motivatsion | Qadriyatli yo'nalganlik va mas'uliyat         | Tanlovini milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda oqibatlar bilan asoslaydi           | Pozitsion esse, axloqiy dilemma        |
| Kognitiv-etnomadaniy   | Kontekstni tanqidiy tushunish                 | Manbaning kelib chiqishi, ma'nosi, funksiyasi va qo'llanish chegarasini tahlil qiladi | Manba tahlili, konsept xarita          |
| Kommunikativ-hamkorlik | Dialog va birgalikdagi qaror                  | Tinglaydi, dalillaydi, fikr farqini hurmat qiladi, rol va resurslarni kelishadi       | Kuzatuv varag'i, tengdosh bahosi       |
| Faoliyatli-xulqiy      | Mas'uliyatli amaliy harakat                   | Muammoni hal qiladi, kelishilgan vazifani bajaradi, natija uchun javob beradi         | Loyiha mahsuloti, ekspert fikri        |
| Refleksiv-transfer     | O'zini baholash va yangi vaziyatga ko'chirish | Xato va kuchli tomonini tahlil qiladi, prinsipni notanish vaziyatga moslashtiradi     | Refleksiv kundalik, situativ topshiriq |

Baholash konstruktiv muvofiqlashtirish tamoyiliga tayangan holda tashkil etiladi: agar maqsad qadriyatli tanlov va hamkorlik bo'lsa, baholash ham ayni faoliyatni kuzatishi kerak<sup>[1: 347-364]</sup>. Shu sabab test ma'lumotning o'zlashtirilishini tekshirish uchun saqlanadi, biroq loyiha mahsuloti, jarayon kuzatuv, tengdosh bahosi, refleksiv kundalik, jamoa yoki hamjamiyat vakilining fikri va yangi situativ topshiriq bilan triangulyatsiya qilinadi. Darajalar "reproduktiv - situativ - produktiv - transformativ" sifatida tavsiflanishi mumkin: birinchi darajada talaba qoidani aytadi, ikkinchisida tanish vaziyatda qo'llaydi, uchinchisida mustaqil mahsulot va qaror yaratadi, to'rtinchisida prinsipni yangi kontekstga moslashtirib, boshqalarning faoliyatiga ham konstruktiv ta'sir ko'rsatadi.

Taklif etilgan yondashuv xalq pedagogikasi va kompetensiyaviy ta'lim o'rtasidagi metodologik bo'shliqni "madaniy kontekstda kompetent harakat" kategoriyasi orqali to'ldiradi. Xalq pedagogikasi qadriyat, norma, rol, ma'no va hamkorlik ssenariylarini beradi; kompetensiyaviy paradigma ularni autentik vazifada safarbar etish, kuzatiladigan natija bilan ifodalash va transfer orqali tekshirishni talab qiladi. Shu ma'noda etnomadaniy mazmun - kontekst, ijtimoiy amaliyot - tashqi mexanizm, refleksiya - ichki o'zlashtirish vositasi, transfer esa kompetentlik barqarorligining dalilidir.



Model xalqaro ramkalarni mahalliy tajriba bilan qarama-qarshi qo'ymaydi. OECDning global darajada shakllantirilib, mahalliy sharoitga moslashtiriladigan kompetensiyalar haqidagi yondashuvi [8: 4-5], UNESCOning tirik merosni ta'lim mazmuni va pedagogikasiga integratsiyalash g'oyasi [12: 146-171] hamda Yevropa Kengashining qadriyatlar, munosabatlar, ko'nikmalar va tanqidiy tushunishni birlashtiruvchi modeli [2: 38-51] mahalliy ildiz orqali ochiq, dialogik va mas'uliyatli shaxsni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Xalq pedagogikasining metodologik hisslari aynan kompetensiyani madaniy ma'no va jamoaviy tajribadan uzilmagan holda shakllantirishidir.

Tadqiqotning cheklovi uning nazariy-konseptual xarakteridir. Mualliflik ta'rifi, metodologik matritsa, tanlash mezonlari, transformatsiya sikli va baholash mezonlarining empirik samaradorligi ushbu maqolada tajriba-sinovdan o'tkazilmadi; shu sabab hech qanday foiz, statistik farq yoki samaradorlik koeffitsiyenti keltirilmagan. Keyingi bosqichda model komponentlarining mazmuniy validligini ekspert baholash, diagnostik rubrikaning ishonchligini pilot tadqiqotda tekshirish, so'ng aralash metodli kvazi-eksperimental dizaynda talabalarning faoliyat mahsuloti, kuzatuv, intervyu va refleksiv materiallarini triangulyatsiya qilish maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv milliy tarbiyaviy merosni zamonaviy ta'lim natijalari bilan bog'laydigan integrativ metodologik tizim sifatida asoslandi. Uning markazida xalq pedagogikasi vositasining o'zi emas, shu vosita asosida yuzaga keladigan madaniy kontekstdagi kompetent harakat turadi.

Yondashuvning falsafiy, umumilmiy, xususiy-ilmiy va texnologik darajalari tizimlashtirildi. Gumanistik-aksiologik asos shaxs agentligi va qadriyatli tanlovni, tizimli-faoliyatli asos mazmun, faoliyat, refleksiya va transfer birligini, etnopedagogik va dialogik asos madaniy autentiklik hamda tanqidiy vorislikni, konstruktiv muvofiqlashtirish esa maqsad, vazifa va baholashning mosligini ta'minlaydi. Mualliflik natijasi sifatida etnojtimoiy resurslarni tanlashning yetti mezonini va "natijani belgilash - resursni ochish - qadriyatli muammo - hamkorlikdagi harakat - refleksiya - transfer va baholash" ketma-ketligidagi olti bosqichli sikl taklif etildi. Sikl xalq pedagogikasini darsdagi ilustrativ materialdan kompetensiya hosil qiluvchi faoliyat va refleksiya resursiga aylantiradi.

Kompetentlikning aksiologik-motivatsion, kognitiv-etnomadaniy, kommunikativ-hamkorlik, faoliyatli-xulqiy va refleksiv-transfer komponentlari hamda ularning kuzatiladigan indikatorlari belgilandi. Natijani baholash test bilan cheklanmay, loyiha mahsuloti, jarayon kuzatuv, dalilangan pozitsiya, tengdosh va ekspert fikri, refleksiv kundalik hamda yangi situativ topshiriq orqali amalga oshirilishi lozim.

Nazariy jihatdan yondashuv global kompetensiya ramkalari va mahalliy madaniy tajriba o'rtaqidagi sun'iy qarama-qarshilikni bartaraf etadi. Amaliy jihatdan esa u professor-o'qituvchiga xalq pedagogikasi vositasini tanlash, autentik vazifaga aylantirish, etik va inklyuziv mezonlarda qayta talqin qilish hamda kompetensiyaviy dalillar orqali baholash uchun yaxlit loyihalash mantiqini beradi. Modelning samaradorligi keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Biggs J. Enhancing Teaching through Constructive Alignment // Higher Education. 1996. Vol. 32. P. 347–364.
2. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Vol. 1: Context, Concepts and Model. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2018. 83 p. ISBN 978-92-871-8573-0.
3. Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938. 116 p.
4. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. 256 p.
5. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. Cambridge: Cambridge University Press, 1991. 138 p.
6. Maksudov U. K. Development of Social Activity of Primary School Students through Folk Oral Creativity // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. 2022. Vol. 2, No. 5. P. 54–57.
7. Mulder M. (ed.). Competence-based Vocational and Professional Education: Bridging the Worlds of Work and Education. Cham: Springer, 2017. 1142 p.
8. OECD. OECD Learning Compass 2030: Concept Note Series. Paris: OECD, 2019.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.
11. Rychen D. S., Salganik L. H. (eds.). Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Göttingen: Hogrefe & Huber, 2003. 206 p.
12. APCEIU, ICHCAP, UNESCO. Bringing Living Heritage to the Classroom in Asia-Pacific: A Resource Kit. Bangkok: UNESCO Bangkok, 2022. 223 p.
13. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO, 2003. [Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya]. URL: <https://ich.unesco.org/en/convention>.
14. UNESCO. Framework for Culture and Arts Education. Paris: UNESCO, 2024.
15. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.
16. Волков Г. Н. Этнопедагогика. – Москва: Академия, 1999. – 168 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.